

## **Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari** 2025- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### **I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi**

2025- yil yanvar-iyul oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **22 267,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,8 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **4 066,3** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **18 200,7** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **110,0 %** ni tashkil etgan.

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



<sup>1</sup>2024- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2025- yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi

2025- yilning yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **26,6 %**, ya'ni **5 924,1** mldr. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **112,7 %** ga yetgan.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**8,2 %**), Romitan (**5,3 %**) va Jondor (**3,9 %**) tumanlarida kuzatilmoqda.

Peshku tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **825,4** mldr. so'mni yoki jami xizmatlar hajmining **3,7 %** ini tashkil etdi. O'sishi **11,2 %** ga yetdi.

### Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari

*2025- yil yanvar-iyul*

	Hajmi, mldr. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Buxoro viloyati<sup>1</sup></b>	<b>22 267,0</b>	<b>100,0</b>	<b>111,8</b>
<i>tumanlar:</i>			
Olot	537,1	2,4	112,9
Buxoro	785,9	3,5	113,8
Vobkent	798,9	3,6	81,8
G'ijduvon	1823,3	8,2	110,4
Kogon	488,4	2,2	107,9
Qorako'l	709,6	3,2	113,2
Qorovulbozor	285,9	1,3	124,6
Peshku	825,4	3,7	111,2
Romitan	1180,4	5,3	168,2
Jondor	860,9	3,9	114,0
Shofirkon	695,3	3,1	112,5
Buxoro shahri	5 924,1	26,6	112,7
Kogon shahri	588,1	2,6	117,0

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi

2025- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 688,8** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davri (**8 874,5** ming so'm)ga nisbatan **1 814,3** ming so'mga yoki **10,1 %** ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **19 661,9** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,7 %** ga yoki **3 177,9** ming so'mga o'sishi kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (**3 684,7** ming so'm) qayd etilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil etdi.

<sup>1</sup>shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-iyul)**

	<b>Hajmi, ming so'mda</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>10 688,8</b>	<b>110,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5 061,9	111,4
Buxoro	4 308,5	111,8
Vobkent	5 262,6	80,4
G'ijduvon	5 553,7	108,8
Kogon	5 632,7	105,7
Qorako'l	4 061,9	111,7
Qorovulbozor	14 016,1	122,1
Peshku	6 164,2	109,2
Romitan	7 669,9	165,8
Jondor	4 547,9	112,1
Shofirkon	3 684,7	111,4
Buxoro shahri	19 661,9	110,7
Kogon shahri	8 951,5	115,5

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 240,1** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **68,4 %** ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **551,7** mlrd. so'mga yoki **20,3 %** ga oshib, **2 412,6** mlrd. so'mga yetdi. Bu shahar va tumanlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **40,7 %** ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**1 512,4** mlrd. so'm), Jondor (**694,0** mlrd. so'm) va Romitan (**630,2** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Qorovulbozor tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **144,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **95,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, Kogon (**399,0** mlrd. so'm) va Olot (**442,6** mlrd. so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lган.

**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirdorlik ko'rsatkichlari  
2025- yil yanvar-iyul**

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>15 240,1</b>	<b>68,4</b>	<b>112,8</b>
<i>tumanlar:</i>			
Olot	442,6	82,4	112,5
Buxoro	627,7	79,9	115,5
Vobkent	627,7	78,6	113,9
G'ijduvon	1512,4	82,9	111,9
Kogon	399,0	81,7	113,5
Qorako'l	557,0	78,5	114,9
Qorovulbozor	144,5	50,5	95,3
Peshku	616,7	74,7	114,0
Romitan	630,2	53,4	120,2
Jondor	694,0	80,6	117,1
Shofirkon	551,5	79,3	114,9
Buxoro shahri	2 412,6	40,7	120,3
Kogon shahri	450,4	76,6	116,0

### **III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27 fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirdorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga savdo xizmatlarining **13,9** % ga (o'sishiga ta'siri **3,0** bandni), transport xizmatlarining **14,8** % ga (o'sishiga ta'siri **2,5** bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **7,1** % ga (o'sishiga ta'siri **1,9** bandni), moliyaviy xizmatlarning **13,6** % ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga ta'siri **1,9** bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **16,4** % ga (o'sishiga ta'siri **0,5** bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarining **20,9** % ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,4** foiz bandga, ijara xizmatlarining **22,2** % ga hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarining **17,4** % ga, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash sohasidagi xizmatlarining **15,0** % ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,3** foiz bandga o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.



**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)**

	<b>Hajmi, mlrd. so'mda</b>		<b>O'sish sur'ati, % da</b>
	<b>2024- y.</b>	<b>2025- y.</b>	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>18 200,7</b>	<b>22 267,0</b>	<b>111,8</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	550,9	705,9	116,4
moliyaviy xizmatlar	2 537,5	2 942,9	113,6
transport xizmatlari	3 106,3	3 948,7	114,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<b>2 837,4</b>	<b>3 570,1</b>	<b>113,1</b>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 874,2	5 989,7	107,1
savdo xizmatlari	3 967,3	4 745,2	113,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	276,2	338,0	117,4
ta'lif sohasidagi xizmatlar	888,7	989,6	97,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	316,7	434,4	120,9
ijara xizmatlari	279,2	373,7	122,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	352,9	439,2	115,0
shaxsiy xizmatlari	342,3	442,5	112,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	98,5	131,8	122,1
boshqa xizmatlar	610,0	785,4	114,7

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi**

2025- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,9 %**, savdo xizmatlari **21,3 %**, transport xizmatlari **17,7 %**, moliyaviy xizmatlar **13,2 %**, ta'lif sohasidagi xizmatlar **4,4 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,2 %** ulushni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,8 %**, savdo xizmatlari **21,8 %**, transport xizmatlari **17,1 %**, moliyaviy xizmatlar **14,0 %**, ta'lif sohasidagi xizmatlar **4,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,0 %** ulushni tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 115,5** mlrd. so'mga oshib, **5 989,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **96,6 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi **4 745,2** mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **113,9 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **21,3 %** darajasida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan transport xizmatlari hajmi **842,4** mlrd. so'mga oshib, **3 948,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,4 %**. Yordamchi transport faoliyati **9,2 %** darajasida qayd etildi.

### Savdo xizmatlari hajmining tarkibi




- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, shu jumladan ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Chakana savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida chakana savdo ulushi **62,5 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **25,0 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida **12,5 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **705,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlarining aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiyligi ulushida eng katta qismini egallab, **79,2 %** ni tashkil etdi. 2024 yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etgan.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd. so'm



2025- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **989,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lif sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida oliy ta'lif sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **74,8 %** ni tashkil etdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiyligi hajmi (**338,0** mlrd. so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulknini ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi **98,9 %** ni tashkil etdi.



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **434,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiyligi hajmining **36,6** % ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar egalladi. Shunday qilib, shifoxona muassasalarini xizmatlari **31,4** % ni, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **12,3** % ni tashkil etdi.

Ijara xizmatlarining umumiyligi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**49,5** %) egallaydi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

##### Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuvalar ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

c) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

d) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvalar natijalariga ko'ra baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarни amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnomalar uchun bo'yicha aniqlanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalgga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (**MST**)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 200100, Buxoro,  
S. Ayniy ko'chasi, 3  
**Pochta:** [info@buxstat.uz](mailto:info@buxstat.uz)  
**Tel.:** 65-223-79-41

